

## 2020-yil yanvar-aprel oylarida Navoiy viloyatida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Xizmatlar sohasining rivojlanishi hozirgi zamon iqtisodiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Iqtisodiyotda xizmatlar o'sishining asosiy omillarini ilmiy bilimlar, nomoddiy shakldagi to'plamlar, axborot texnologiyalari va tadbirkorlik faoliyati integratsiyasi kabi omillar tashkil etadi.

Iqtisodiyotning ushbu sektori turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga olib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ushbu faoliyatning yakuniy natijasi tayyor mahsulot emas, balki ko'rsatilgan xizmatlardir. Xizmatlar nafaqat korxonalariga, balki jismoniy shaxslar - yakuniy iste'molchilarga ham ko'rsatilishi mumkin.

### 2020-yil yanvar-aprel oylarida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari



**Xizmatlar sohasi** bu — korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil turdagi xizmatlar, ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtirilgan toifadir. Ushbu sohani ko'pincha rivojlangan zamonaviy infratuzilma tufayli sanoatdan keyingi iqtisodiy tuzilma tarzida ko'riladi.

Mazkur soha xalqaro korporatsiyalar, banklar, aviakompaniyalar, kompyuter markazlari, telekommunikatsiyalar, sug'urta, yuridik va konsalting firmalari, davlat va nodavlat tashkilotlari, shuningdek, notijorat tashkilotlarini qamrab oladi.

## 2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni - 11 995 birlikda

Ularning umumiy sonidagi ulushi -  
66,1 %

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlari -  
149,6 %




**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi – 66,1 %, sanoat - 15,5 %, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasi - 10,1 % va atigi 8,3 % i qurilish sohasi hissasiga to'g'ri keldi.

**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida, savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar yuqori ulushni (48,4 %) egallaydi. Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 10,3 % ni tashkil etdi.




*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 4,8 % ga yetdi. Axborot va aloqa faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning jami xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibidagi ulushi 1,5 % ga teng bo'ldi. Sog'liqni saqlash, shuningdek, ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 2,3 % ni tashkil etdi.

**Ma'lumot uchun:** 2019-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida 8019 birlik korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatgan. Ularning umumiy tarkibida savdo xizmatlari – 33,1 %, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar - 12,5 %, tashish va saqlash - 6,3 %, axborot va aloqa – 1,8 %, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish – 2,9 % hamda boshqa turdagi xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar – 43,4 % ni tashkil etgan.

Kichik tadbirkorlik subyektlari milliy iqtisodiyotning ajralmas va muhim bo'lagi bo'lib, ko'plab iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish, xizmatlarni rivojlantirish hamda insonlarning farovon hayotini ta'minlash uchun yetakchi kuchga aylandi.

**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi, % da**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida kichik tadbirkorlik subyektlarining hisssasi 82,4 % ga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-may holatiga ko'ra, yirik tashkilotlar ulushi 17,6 % ni tashkil etdi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining o'sishi, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

**2020-yil 1-may holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*



2020-yil 1-may holatiga ko'ra, o'tgan yilning shu davriga nisbatan xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 3 930 taga ko'paydi.

Natijada, ularning soni 9 887 tani tashkil etdi va o'sishi esa 66,0 % ga oshdi. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining umumiy sonida xizmatlar sohasida band bo'lganlarning ulushi 62,0 % ga yetdi.

**Taqqoslash uchun:** o'tgan yilning shu davrida xizmatlar sohasida band bo'lgan kichik korxonalar va tashkilotlar sonining ulushi 57,1 % ekvivalentida qayd etildi.



Hozirgi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining o'zni juda katta ahamiyatga egadir.

Koronavirus infeksiyasi (COVID-19) tarqalishining oldini olish hamda, unga qarshi kurashish maqsadida insonlarning harakatlanishiga cheklovlar kiritish va korxonalar faoliyatini to'xtatish orqali misli ko'ril-magan choralar ko'rildi. Bu esa deyarli barcha faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarish va iste'mol hajmlarining keskin qisqarishiga olib keldi va bu o'z navbatida xizmatlar sohasining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatdi.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari

Natijada, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1540,1 mlrd. so'mga yetdi. Uning nominal hajmi bor yo'g'i 128,9 mlrd. so'mga oshdi. Taqqoslama ekvivalentda, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 98,9 % ni tashkil etdi.



**Xizmatlar** – iste'molchilar (yuridik va jismoniy shaxslar) holatini o'zgartiruvchi yoki tovarlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar bilan ayirboshlashiga ko'maklashadigan ishlab chiqarish faoliyatining natijasi hisoblanadi.

*Dastlabki ma'lumotlar*

Xizmatlar sohasi ishlab chiqarish unumdorligini va samaradorligini oshirishga yordam beradigan turli xil faoliyat turlarini o'z ichiga oladi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ishlab chiqarilgan  
xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
<b>Xizmatlar - jami</b>	<b>1540,1</b>	<b>98,9</b>
shu jumladan:		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	77,8	115,4
Moliyaviy xizmatlar	387,5	142,5
Transport xizmatlari	226,3	82,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	197,6	87,6
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	55,5	81,7
Savdo xizmatlari	479,2	88,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	25,5	77,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	53,0	87,3
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	17,3	96,3
Ijara xizmatlari	25,1	85,9
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	21,8	83,3
Shaxsiy xizmatlar	33,7	83,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	74,2	128,9
Boshqa xizmatlar	63,2	87,0

*Dastlabki ma'lumotlar*

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida eng katta ulushini savdo xizmatlari egallaydi. Shunday qilib, 2020-yil yanvar-aprel oylarida ularning ulushi 31,1 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, yuqori ko'rsatkichlar moliyaviy xizmatlar (25,2 %), transport xizmatlari (14,7 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,1 %) bo'yicha qayd etildi.


**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibi, %**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar ko'rsatish hajmining uncha katta bo'lmagan o'sishi kuzatildi, ularning ulushi atigi 1,1 % ni tashkil etdi. Shuningdek, kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlar bo'yicha past ulush qayd etildi - 1,4 %, ijara sohasidagi xizmatlarning ulushi – 1,6 % va ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarda -1,7 % qayd etildi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan  
bozor xizmatlarining o'sish sur'atlari,  
2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan % da  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)



Yuqori o'sish moliyaviy xizmatlar (42,5 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (28,9 %) va aloqa va axborotlashtirish xizmatlarida (15,4 %) qayd etildi.

Xizmatlar sohasiga ta'luqli bo'lgan boshqa barcha faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'atlarining pasayishi kuzatilmoqda.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq bo'lgan bozor xizmatlari hajmi sezilarli darajada (22,5 % ga) pasayishi qayd etildi. Shu bilan birga, yashash va ovqatlanish xizmatlari (18,3 % ga), transport xizmatlari (17,7 % ga), kompyuter ta'mirlash xizmatlari (16,7 % ga), shaxsiy xizmatlar (16,4 % ga), ijara xizmatlari (14,1 % ga), shuningdek, ta'lim sohasidagi (12,7 % ga) xizmatlarda pasayish kuzatildi.

Har bir mamlakatning iqtisodiy hayotida muhim o'rin tutuvchi savdo sohasi ishlab chiqarish va iste'mol o'rtasidagi aloqani ta'minlaydi, shuningdek, tovarlarni ishlab chiqarish hajmi va tarkibiga, ularning turlarini yaxshilanishiga va sifatini oshishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.


2020-yil yanvar-aprel oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida savdo xizmatlarining ulushi 31,1 % ni tashkil etib, bu 479,2 mlrd. so'mga teng bo'ldi.

**Savdo** bu - tovarlarning aylanishini, ularning ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga o'tishini ta'minlaydigan iqtisodiyot sohasidir. Ma'lum bir davlat ichida savdo tovarlarni zarur iste'molchiga yetkazib berish vazifasini bajaradi. U ulgurji va chakana savdoga bo'linadi.


Joriy davrda chakana savdo xizmatlari ulushi, umumiy savdo xizmatlari hajmining to'rttdan uch qismining ko'prog'iga, aniqrog'i 82,0 % ga to'g'ri keladi.

**Savdo xizmatlari tarkibi, % da**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)


**Savdo xizmatlari - 100,0 %**



Avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi, jumladan, ularni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan holda



Ulgurji savdo xizmatlari (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)



Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

*Dastlabki ma'lumotlar*

Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) 11,2 % ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar, jumladan, avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda, savdo xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 6,8 % ni tashkil etdi.

### Moliyaviy xizmatlar (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



2020-yil yanvar-aprel oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 387,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 137,8 mlrd. so'mga oshdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sishi 42,5 % ni tashkil etdi.

Zamonaviy bank xizmatlarini taqdim etish uchun shart-sharoitlar yaratishda, innovatsion bank texnologiyalarining joriy etilishi orqali chakana xizmatlarni ko'rsatishga ixtisoslashgan "raqamli" banklar va ularning bo'linmalari faoliyatini tashkil etish, masofadan turib bank xizmatlarini takomillashtirish va to'lov tizimini yanada rivojlantirish, moliyaviy xizmatlarning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Moliyaviy xizmatlar hajmi - moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

**Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

Moliyaviy xizmatlar umumiy hajmida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlarning ulushi 93,8 % ni tashkil etadi.


Joriy davrda sug'urta xizmatlarining ulushi 4,3 % oraliq'ida qayd etildi.



Moliyaviy va sug'urtalash xizmatlariga nisbatan yordamchi xizmatlarning umumiy moliyaviy xizmatlar hajmidagi ulushi yuqori ko'rsatkichga ega emas va u 1,9 % ni tashkil etadi.

Transport sohasida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining sezilarli darajada pasayishiga qaramay, xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi – 14,7%.

**Transport turlari bo'yicha transport xizmatlarining tarkibi, % da**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)




Transport xizmatlari umumiy hajmida quruqlikdagi transport xizmatlarining ulushi 89,1 % ni tashkil etdi.

Saqlash va boshqa yordamchi transport xizmatlarining hajmi 10,2 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida, transport xizmatlari umumiy pochta va kur'yerlik xizmatlari hajmi 0,7 % ga yetdi.

Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, AKT rivojlanishi mamlakatning raqobatbardoshlik darajasiga bevosita ta'sir qiladi, sizga katta hajmdagi ma'lumotlarni to'plash va umumlashtirishga imkon beradi, strategik darajada boshqaruv uchun katta imkoniyatlar ochadi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2020-yil yanvar-aprel oylarida)




2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan

2020-yil yanvar-aprel oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 77,8 mlrd. so'm darajasida belgilandi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan ushbu turdagi xizmatlarning o'sish sur'ati 115,4 % ga yetdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi 5,1 % ni tashkil etdi.

## Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da (2020-yil yanvar-aprel oylarida)





## Dastlabki ma'lumotlar

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida eng katta ulushni telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) egallab, 97,4 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari hamda boshqa yordamchi xizmatlar va noshirlik xizmatlari –0,9 %, axborot sohasidagi xizmatlar - 0,7 %, boshqa aloqa xizmatlari – 0,1 % ni tashkil etdi.

Ma'lumki, fuqarolarni yuqori sifatli va hamyonbop narxlardagi ta'lim bilan ta'minlash, jamiyat taraqqiyotini, uning kelajagini aniq belgilab beradigan vazifadir.



### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2020-yil yanvar-aprel oylarida)



2020-yil yanvar-aprel oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi 53,0 mlrd. so'mga yetib, bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 87,3 % ni tashkil etdi.




Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2020-yil yanvar-aprel oylarida)

O'tgan yilning shu davriga nisbatan yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning o'sish sur'ati atigi 81,7 % ni tashkil etdi, ularning hajmi esa 55,5 mlrd. so'mga teng bo'lgan.

Ushbu davrda ularning bozor xizmatlari umumiy hajmidagi ulushi atigi 3,6 % ni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar - oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatidir.

## Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi (2020-yil yanvar-aprel oylarida)




2020-yil yanvar-aprel oylarida yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 27,2 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu - sog'liqni saqlash muassasalarining tibbiy va sanitariya xizmatlari, shuningdek, tashkilotlar va tibbiyot korxonalari, stomatologiya, fizioterapevtik, gomeopatik poliklinikalar, kosmetologiya klinikalari, giyohvand moddalarni iste'mol qiluvchilarni davolash ambulatoriyalari, laboratoriya va sanitariya-epidemiologiya profilidagi muassasalar tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining qiymatidir.

**Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar**  
(2020-yil yanvar-aprel oylarida)

2020-yil yanvar-aprel oylarida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlarning hajmi 17,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlar umumiy hajmida ularning ulushi 1,1 % ni tashkil qildi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 96,3 % ni tashkil etdi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlarni ishlab chiqarish iste'molchilarning daromad darajasi, didi va xohish-istaklariga qarab differensiyalanadi.

Ma'lumki, xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi aholining hududiy va ijtimoiy harakatchanligini, yangi xo'jalik hududlarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish samaradorligini va moddiy mahsulotlar iste'molini oshirishni ta'minlaydi.

## Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari

2020-yil yanvar-aprel oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 1541,9 ming so'mga yetdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 97,1 % ni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi-  
1541,9 ming so'm

2019-yil yanvar-aprel oylariga nisbatan



Xizmatlar sohasining tarmoqlar tarkibi va texnologiyalari tobora murakkablashib borishi, mahsulot sifati va rang-barangligini oshirish, shuningdek, yuqori texnologiyali xizmatlar tarmoqlarining jadal rivojlanishi korxonalar va tashkilotlar, uy xo'jaliklarining samaradorligi va raqobatbardoshligini yanada oshirishga yordam beradi.

Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi

79-223-63-31